

# JOURNAL OF NATURAL SCIENCE

**№ 2 (7) 2022** <http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p><b>Бош муҳаррир –</b> У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p><b>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова,</b> PhD, доц.</p> <p><b>Масъул котиб-</b> Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)</li><li>3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА</li><li>4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya</li><li>5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор</li><li>6. Абдурахмонов Э.А.–СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>7. Насимов А.М.–СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>8. Сманова З.А.-ЎзМУ к.ф.д., профессор</li><li>9. Тошев А.Ю.- ТТЕСИ к.ф.д, доцент</li><li>10. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д, доц</li><li>11. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.</li><li>12. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф</li><li>13. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.</li><li>14. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>15. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.</li><li>16. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц</li><li>17. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.</li><li>18. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li><li>19. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц</li><li>20. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li><li>21. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>22. Муминова Н- ЖДПИ к.ф.н., доц</li><li>23. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li><li>24. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)</li></ol>
<p><b>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</b></p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**ZA'FARONNI EKISH UCHUN YER TANLASH VA UNING  
TALABLARI**

*Sattorova Madina Abduvaxob qizi*

**Jizzax Davlat Pedagogika Instituti Magistranti**

**Annotatsiya:** Maqolada za'faron o'simligini ekish uchun er tanlash, turli mamlakatlarda ekish tartibi va uning o'sib rivojlanishiga kerak bo'ladigan muxit haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ekma za'faron, shafran, O'rta Yer dengizi, Markaziy Yevropa, Sharqiy Yevropa, Kichik Osiyo, va Kavkaz orti mamlakatlari, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Gretsiya, Ukraina, Bolgariya, Turkiya, Rossiya, Ozarbayjon, Kipr, Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyoning janubiy mamlakatlari Eron, Afg'oniston, O'zbekiston, Tojikiston

**Annotation:** The article provides information on the selection of land for planting saffron, the order of cultivation in different countries and the environment necessary for its growth.

**Keywords:** Planted Saffron, Saffron, Mediterranean, Central Europe, Eastern Europe, Asia Minor, and Transcaucasia, France, Italy, Spain, Greece, Ukraine, Bulgaria, Turkey, Russia, Azerbaijan, Cyprus, India, China, southern countries of Central Asia, Iran, Afghanistan, Uzbekistan, Tajikistan

Za'faron yorug'sevlar o'simlik bo'lib, tunganakpiyozlarni avgust oyida ekish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, bu vaqtda kelib tuproq sathida kechasi va kunduzi harorat qizish ko'rsatkichi 40-45°C dan oshib ketmaydi. Tunganakpiyozlarni erga ekilgandan so'ng tuproq zaxlatib sug'oriladi, natijada tuproqdagi o'rtacha harorat 23-28°C ni tashkil etadi. Bunday sharoit za'faron o'simligining



tunganakpiyozlarining unishi uchun optimal sharoit hisoblanadi. Za'faron o'simligi plantatsiyasi uchun er maydonlarini tanlashda uning bioekologik xususiyatlaridan kelib tanlash maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, yorug'lik etarli darajada tushadigan, havoning nisbiy namligi yuqori bo'lgan, erosti suvlari tuproq yuzasiga 2-3 m. gacha joylashgan va mayin shamol

esadigan nishabroq maydonlar o‘simlikning o‘shishi va rivojlanishiga ijobiy ta’sir etib, hosildorlikni miqdor va sifat jihatidan yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Shuningdek, za’faron (shafran) o‘simligini etishtirish uchun ma’qul maydonlar tog‘oldi adirlklari va suv o‘tadigan irrigatsiya tizimi yo‘nalishi bo‘ylab joylashtirilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi. Za’faron o‘simligi tuproqqa nisbatan talabchan, chunki o‘simlik tuganakpiyozli bo‘lib, yuqori darajada sho‘rlangan va shag‘alli erlarda qattiq zich tuproqlarda ekilsa hosildorlik yuqori samara bermaydi. Za’faron o‘simligini etishtirish uchun eng qulay tuproqlar soz, bo‘z, qumloq, unumdor va suv bilan oz bo‘lsa-da ta’minlangan hududlarda ekish tavsiya etiladi. Shuningdek, tarkibida kalsiyli tuzlar va unumdorligi o‘rtacha bo‘lgan tuproqlarda ekma za’faron o‘shishi mumkin, ammo bu erlarda hosildorlik sezilarli darajada past bo‘ladi. Bundan tashqari, za’faron o‘simligini namlik to‘plangan va kislotalik pH nisbati 8,5 dan yuqori bo‘lgan erlarda o‘stirish mumkin, unumdor tuproqlar za’faronning yaxshi o‘shishi va serhosil bo‘lishini ta’minlaydi. Ekma za’faronni ekish muddati hududning tuproq va iqlim sharoitiga qarab aniqlanadi. Ekma za’faron etishtiriladigan mamlakatlarda tuproq va iqlim sharoitini inobatga olgan holda ekish muddati iyul oyidan sentabr oyigacha belgilangan. Ya’ni, amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari tahliliga ko‘ra, ekma za’faronni etishtiradigan mamlakatlarda ekish muddatlari va maydonda tuganakpiyozlarni sarflanishiga qarab asosan quyidagi guruxlarga bo‘linadi:

1. O‘rta Yer dengizi atrofidagi Markaziy Yevropa, Sharqiy Yevropa, Kichik Osiyo, va Kavkaz orti mamlakatlarida (Fransiya, Italiya, Ispaniya, Gretsiya, Ukraina, Bolgariya, Turkiya, Rossiya, Ozarbayjon, Kipr va boshqa) ekma za’faronni ekish muddati sentyabr oyida amalga oshirilib, har gektar maydonga 4-5 t. dan tuganakpiyozlar qator tortilmasdan tekis maydonga ekiladi.

2. Hindiston, Xitoy va Markaziy Osiyoning janubiy mamlakatlari (Eron, Afg‘oniston)da ekma za’faronni ekish muddati iyul oyida belgilangan bo‘lib, har gektar maydonga 1 t, qator tortilmasdan tekislikda ekilgan maydonlarda 3 t gacha tuganakpiyoz sarflanadi;

3. Markaziy Osiyoning shimoliy mamlakatlari (O‘zbekiston, Tojikiston va boshqalar) ekma za’faronni ekish muddati avgust oyining birinchi yarmida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir, sababi o‘simlik reproduktiv jarayonga kirishi, ya’ni gullash jarayoni bilan uzviy bog‘liq. Ilmiy tadqiqotlarimiz natijalariga ko‘ra, quyidagi holatlarga e’tibor berish zarurligi aniqlangan:

a) o‘simlik ekilgan vaqtdan to generativ fazaga kirishi va gullash davrigacha 55-63 kunning talab etishi nazarda tutilgan. Bu vaqtda, ya’ni sentyabr oyining oxiri va oktabr oyining boshida (havo harorati 5-7<sup>0</sup>C da gullash jarayoni to‘xtaydi) o‘simlik hosili terib olinadi;



b) o‘simlikning tuganakpiyozlari 60 x70 x 90 sm oraliq qatorlarda, 8 dan 15 sm gacha chuqurlikda gektariga bir tonna hisobiga ekiladi. Bu me‘yor, plantatsiyada agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishning qulay bo‘lishini (mexanizatsiya yordamida amalga oshiriladigan tadbirlar) hamda qish mavsumida o‘simliklarni izg‘irin sovuqdan muhofaza qilish choralarini ta‘minlaydi. Demak, turli mintaqalarda va mamlakatlarda ekma za‘faronni etishtirish, uning dehqonchiligini amalga oshirishga turlicha yondashilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. AGROBANK 100 KITOB TO‘PLAMI. 32–kitob Shafran (za‘faron) etishtirish
2. <https://biosfera.uz/zafaron/>
3. <https://xalq-tabobati.uz/uy/2095/tabobat-dorixonasi/zafaron-ziravorlar-sultonivasultonlar-ziravori/>
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Za%CA%BCfaron>